Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!

# SariOsiyo

2026-yil–Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

3 aprel 2026 yil. Juma № 13 (8241) | Ijtimoiy-siyosiy gazeta | (Gazeta 1932 yildan «Sariosiyo haqiqati» nomi bilan chiqa boshlagan)

## O'ZBEKISTON—TOJIKISTON:

## MUNOSABATLAR TARIXIY VA MUHIM BOSQICHGA KIRDI

*O'zbekiston dunyoning ko'p davlatlari bilan ittifoqchilik munosabatini o'rnatgan va bunda Tojikiston alohida ahamiyatga ega. Chunki, ikki qo'shni davlatning dini, tarixi bir, qadriyati, urf-odatlari mushtarak, madaniyati, turmush tarzi deyarli o'xshash. Xalqlarimiz azaldan bir ariqdan suv ichgan, quvonch va tashvishlarda hamdam bo'lgan, quda-anda bo'lib yashagan. Yaxshi kunlarda ham, sinovli damlarda ham doimo yelkadosh, bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan.*

*Ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmonning sa'y-harakati bilan asrlar sinovidan o'tgan qo'shnichilik munosabatlari so'nggi yillarda tarixiy bosqichga kirdi. Bu quyidagi misolda ham yaqqol ko'zga tashlanadi: 2017-yilda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi hajmi 70 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil kelib 500 milliondan oshdi. O'tgan yil yakuniga ko'ra, bu raqam qariyb 1 milliard dollarga yetdi. 2028-yilga borib, o'zaro savdoni 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati bor.*

*Bugun sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika va boshqa ko'plab sohalarda davlatlararo qator kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirda 500 dan ortiq o'zaro qo'shma korxona faoliyati yo'lga qo'yilgan. Poytaxtlar – Toshkent va Dushanbe o'rtasida haftasiga o'nta aviaqatnov amalga oshirilmoqda. Avtobus va poyezd qatnovlari ham muntazam yo'lga qo'yilgan. Yuk tashish hajmi jadal o'sib boryapti.*

*Ayniqsa, ikki davlat o'rtasida turizm aloqalari yuqori suratlarda rivojlanyapti. O'tgan yili mamlakatimizga qariyb 12 million nafar chet el sayyohi kelgan bo'lsa, ularning 2,7 millionini tojikistonliklar tashkil etdi. 1,2 million nafardan ortiq o'zbekistonlik esa ushbu davlatga safar qilgan.*

*Tojikiston Prezidentining 26-27-mart kunlari O'zbekistonga davlat tashrifi esa o'zaro aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga, jumladan, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini amaliy mazmun, ilg'or tashabbuslar bilan yanada boyitishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, tashrif doirasida Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan o'nlab hujjatlar imzolandi.*

*Eng muhimi, Davlat rahbarlari 10 ta qo'shma loyihani boshlab berdilar. Xususan, bunda Tojikistonda mebel va charm mahsulotlari korxonalarini tashkil etish, maishiy texnika ishlab chiqarishni kengaytirish, to'qimachilik quvvatlarini barpo qilish, Toshkentda turar joy majmuasi va savdo obyektlarini qurish hamda Farg'ona viloyatida konserva mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Andijon viloyatida sut mahsulotlari, Surxondaryo viloyatida esa meva sharbatlari va metall briketlar ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.*

*Ikki mamlakat o'rtasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xususan, "Markaziy Osiyo plyus", BMT, MDH, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasida bir-birining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.*

*Parlament delegatsiyalarining o'zaro tashriflari ham muntazamlik kasb etgan. Ayniqsa, parlamentdagi do'stlik guruhlari doirasidagi aloqalar faol rivojlanyapti. O'tgan yili parlamentlar rahbariyati darajasida do'stlik guruhlari hamraislarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Tegishli qo'mita va komissiyalari o'rtasida qator onlayn maslahatlashuvlar o'tkazildi.*

*Ta'kidlash lozim, O'zbekistonda ushbu tashrifga har qachongidanda jiddiy tayyorgarlik ko'rildi. Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, hududlar, rektor va olimlar, yoshlar, tahlil markazlarining forumlari, Tojikiston madaniyati va kinosi kunlari va boshqa bir qator muhim tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi. Madaniy-gumanitar aloqalar xalqlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlik ko'prigi bo'lib qolmoqda. Hamkorlik doirasida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy do'stligi haqida film tayyorlandi. Yangi Toshkentdagi ko'chalardan biriga esa Dushanbe shahri nomi berildi.*

*Tashrif doirasida yillik taqvim asosida ta'lim, turizm va yoshlar yo'nalishlarida faol almashinuvlarni davom ettirish niyati bildirildi. Ikki mamlakatdagi yirik o'zbek va tojik diasporalarini qo'llab-quvvatlash, madaniy markazlarni keng rivojlantirish, ona tili, an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash maqsadida Madaniy-gumanitar sohada hamkorlik bo'yicha kompleks dastur tayyorlanadi.*

*Oliy darajadagi navbatdagi O'zbekiston–Tojikiston sammiti, hech shubhasiz, nafaqat ikki davlat, balki Markaziy Osiyoda barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, bugun ikki xalqda ham tarixiy va madaniy yaqinlikni o'zaro hurmat va ishonch, bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda yanada rivojlantirishga bo'lgan intilish borgan sari kuchaymoqda.*

**Go'zal SAMIYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

## O'zbekistonda "yashil" texnikumlar tashkil etilib, ekostipendiya ta'sis etiladi

O'zbekistonda 2026—2027-yillar davomida respublikaning har bir hududida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlaydigan 14 ta "yashil" texnikumlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

"Ekomadaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi prezident qarorida belgilanishicha, ushbu texnikumlarda hududning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, sohalar uchun o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

2026—2028-yillarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida ilmiy daraja olgan nomzodlar sonini 150 nafargacha yetkazish maqsad qilingan. 2030-yilgacha respublikaning har bir hududidagi "yashil" texnikumlarda 10 ming nafar o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash uchun ekologik ta'lim va ilmni yanada rivojlantiriladi.

"Yashil" texnikumlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va ta'lim sifatini oshirish maqsadida ular Kasbiy ta'lim agentligi bilan kelishuv asosida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti — Green University'ga biriktiriladi.

Universitet hamda "yashil" texnikumlar ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash maqsadida 2026/2027-o'quv yilidan boshlab:

-"yashil" texnikumlarda ta'lim jarayoni universitet tomonidan ishlab chiqiladigan va Kasbiy ta'lim agentligi tasdiqlaydigan ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladi;

-"yashil" texnikumlarda majburiy va tanlov fanlari universitet tomonidan belgilanadi;

-universitetning 1-bosqichida o'qitiladigan mutaxassislik fanlari "yashil" texnikumlarning 2-bosqich o'quv dasturlariga maxsus kurs sifatida kiritiladi;

-"yashil" texnikumlarni muvaffaqiyatli bitirgan ingliz tilidan V2 darajaga ega bo'lgan bitiruvchilarga universitet tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning 2-bosqichidan o'qishni davom ettirishga ruxsat beriladi;-"yashil" texnikumlarda eko stipendiya ta'sis etiladi va har yili 10 nafargacha iqtidorli o'quvchilarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan (ayni paytda bu miqdor oyiga 1 271 000 so'mni tashkil qilmoqda) kam bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

O'zbekistonda 2026/2027-o'quv yilidan boshlab 14 ta hududda "yashil texnikumlar" tashkil etilib, ular Green University tizimiga akademik hamkorlik asosida biriktirilishi Shavkat Mirziyoyev 23-mart kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026—2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishganida ma'lum qilingandi.





## Tumanda chigit ekish ishlari qizg'in davom etmoqda

*Sariosiyo tumanida 2026-yil hosili uchun jami 1050 gektar maydonga chigit ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 150 gektarida zamonaviy "Shinjon" usulida yuqori hosildor xorijiy navlar ekilmoqda. Ayni kunlarda fermer xo'jaliklari tomonidan chigit ekish ishlari uyushqoqlik va yuqori saviyada olib borilmoqda.*

*Xususan, bugun Sariosiyo tumani hokimi Odiljon Yaqubov, viloyat "Urug'chilikni rivojlantirish" davlat muassasasi boshlig'i Tojimurod Mamaraimov hamda qishloq xo'jaligi sohasi mas'ullari bilan birgalikda tumanning G'. Xidirov hududida joylashgan "Axmadqulova Muslima Dalasi" fermer xo'jaligining dala maydonida bo'lib, chigit ekish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.*

*Tadbir avvalida yurtimiz tinchligi, hosillar mo'l-ko'l bo'lishi hamda boshlanayotgan mavsumning barakali o'tishini tilab duoga qo'l ochildi va Qur'on tilovat qilindi.*

*Shundan so'ng mas'ullarga agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalari hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish, suv ta'minotini to'g'ri tashkil etish, shuningdek, hosildorlikni oshirishga qaratilgan zarur tavsiyalar berildi.*

*Shuningdek, chigit ekish va g'alla parvarishi jarayonlarini jadallashtirish, ob-havoning noqulay sharoitlarini inobatga olgan holda ishlarni kechiktirmasdan tashkil etish, g'o'za nihollarini sifatli undirib olish muhimligi alohida ta'kidlandi.*

### Sariosiyo tumani mahallalarida tungi vaqtlarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida mas'ul davlat organlari, tashkilotlar, keng jamoatchilik vakillari hamda mahalla yettiligining imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi

Unda Sariosiyo tumani hokimi Odiljon Yaqubov, tuman prokurori B.Oltibayev, tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i G'.Xo'jamqulov hamda tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i Sh. Qosimov, tuman mutasaddilari boshchiligida tumandagi korxona va tashkilotlar rahbarlari, mahalla yettiligi a'zolari ishtirok etdi.

Yig'ilishda mahallalarda tungi vaqtlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish, aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan manzilli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla yettiligi, nuroniylar, ta'lim muassasalari hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Muhokama davomida mahallalarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalari faoliyati, tungi va kunduzgi reyd tadbirlari, ijtimoiy xavfli toifadagi oilalar bilan olib borilayotgan manzilli ishlar, muqaddam sudlangan shaxslar hamda profilaktik hisobda turgan fuqarolar bilan amalga oshirilgan individual profilaktik chora-tadbirlar natijalari atroflicha tahlil qilindi.

Yig'ilish yakunida mahalla yettiligi va mas'ullarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, soat 20-00 dan 06-00 gacha jamoatchilik patrullik guruhlari tomonidan profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ish tashkil qilish, profilaktik ishlarni tizimli va uzviy tashkil etish, fuqarolarning huquqiy ongi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan aniq vazifa va topshiriqlar belgilab berildi.




### Hurmatli fuqarolar!

**Joriy yilning 1-aprel kunidan 1-may kunigacha respublikamizda "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan, Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Surxondaryo viloyati aholisi va hududdagi barcha tashkilotlarni ushbu muhim tadbirda faol ishtirok etishga, o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, targ'ibot ishlari va profilaktik tadbirlarda qatnashishga chaqiradi. Har bir fuqarodan xavfsizlik qoidalariga amal qilish, ogohlikni oshirish va o'z yaqinlari hamda atrofdagilar xavfsizligiga befarq bo'lmaslik so'raladi.**

### 2026 yil 1 maydan har oyning 10 va 25 sanalarida "Avtomobilsiz kun", "Avtomobilsiz hafta" aktsiyalari o`tkazib boriladi

Bunda mazkur aktsiyalar doirasida davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish qat'iyan taqiqlanadi—prezident farmoni

### Endi kredit to`lamaganlar bilan prokuratura xodimlari shug'ullanadi

Prezident farmoni bilan muammoli kreditlarni undirish samaradorligini oshirish maqsadida yangi yondashuv joriy etilmoqda.

Unga ko`ra:

–undirish jarayonlari ixtisoslashtirilgan davlat ijrochilariga yuklanadi;

–qo`shimcha 400 ta ijrochi shtat birligi ajratiladi;

–ushbu tizim tijorat banklari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

–ijrochilar sonini oshirish yoki kamaytirish Bosh prokuror buyrug'i bilan belgilanadi.

Shuningdek, Majburiy ijro byurosi va Markaziy bank ikki oy ichida undirish jarayonida to`lovlarni taqsimlash tartibini belgilaydi.

### Aliment qarzdorlariga cheklovlar joriy etiladi

O`zbekistonda 2026-yil 1-maydan aliment to`lovlarini undirish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi tartib kuchga kiradi.

Prezident farmoniga ko`ra, aliment bo`yicha qarzdorlik mavjud bo`lsa, qarz to`liq qoplanmaguncha, qarzdorlarga yirik bitimlarni amalga oshirish, ayrim moliya-kredit xizmatlaridan foydalanish, ayrim davlat xizmatlarini olish cheklanadi.

Mazkur choralar aliment to`lovlarini o`z vaqtida amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

### Surxondaryo viloyatida qurilish sohasida qaysi hududlar yetakchi?

2026-yilning yanvar-fevral oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 1194,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,8 %ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi quyidagicha:
Termiz sh–273 mlrd so`m;
Sariosiyo–74,1 mlrd so`m;
Denov–74,1 mlrd so`m;
Jarqo'rg'on–53,7 mlrd so`m;
Boysun–53,6 mlrd so`m;
Termiz–49,9 mlrd so`m;
Sherobod–42,0 mlrd so`m;
Oltinsoy–26,8 mlrd so`m;
Qumqo'rg'on–25,7 mlrd so`m;
Qiziriq–25,3 mlrd so`m;
Muzrabot–24,4 mlrd so`m;
Angor–23,9 mlrd so`m;
Sho'rchi–21,4 mlrd so`m;
Uzun–17,6 mlrd so`m;
Bandixon–9,2 mlrd so`mmni tashkil etdi.

*Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi oldidan*

# AMIR TEMURNING VATANIMIZ VA JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Temur va Temuriylarning jahon ilm-fani va madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi moddiy-manaviy yodgorliklar, qo'lyozma tarixiy asarlar, asl hujjatlar Temuriylar davrini ochib berishga bizga yordam beradi. Bu davrda ilm–fan savdo sotiq qurilish va qishloq xo'jaligi misli ko'rilmagan tarzda taraqqiy etdi.

Me'morchilikning ajoyib namunalari yaratildi. Ayniqsa masjid, madrasa xonaqohlar, karvonsaroylar, qiroatxonalar, rabotlar, ko'prik, turli boglar, sug'orish inshootlari aziz avliyolarning maqbaralarini bunyod qilib, buyuk ipak yo'li bo'ylab kattasavdo sotiqni rivojlantirishi bilan yanada namoyon bo'ldi.

Amir Temur buyuk hukmdor, harbiy sarkarda, huquqshinos, markazlashgan davlat asoschisi, hofizi Qur'on, sayyidlar hamda piru ustozlarga o'ta ehtiromli, O'rta yer dengizidan Buyuk Xitoy devorigacha, Kaspiy dengizidan Fors ko'rfasigacha bo'lgan hududlarni o'z tasarrufiga kirgizgan buyuk davlat asoschisi.

Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi say-harakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr – 1370-1388 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Amir Temur asosan turkiy xalqlardan tashkil topgan Chig'atoy mulkini markazlashgan qudratli davlatga birlashtirish uchun kurashadi.

Ikkinchi davr – 1388-1405 yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlati hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysunuvidagi mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'matdi.

Siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.



Amir Temur, avvalo Osiyo sarkardasi edi. U o'zining g'olib askarlaridan o'z zamonasining taomili bo'yicha foydalandi. To'g'ri, jazo nihoyatda qattiq, ammo ko'pincha adolatli bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl" — "Adolat sohibi" nomlari bilan ulug'lanadi.

**Jalilov Muhammadsharif Mahmudzoda,**
**1-maktab o'qituvchisi**

# КЎКЛАМ – МЕҲНАТ БИЛАН КЎРКАМ

Аввалллари ота уйимизда ҳаммамизни ўз дарахтимиз бўларди, падару бузрукворим ҳар биримизга атаб мевали дарахтлар экардилар, бизларга таништирардилар, дарахт парваришлашни, суғоришни ва бошқа ишларни эринмай ўргатар эдилар. Дарсдан келишимиз билан борадиган манзилимиз ўз дарахтларимиз билан "мулоқот" қилинадиган жойимиз бўларди. Ниҳолларимизга бўлган эътибор ва меҳримиздан табиатга, она Ватанга, онажоним ва отажонимга бўлган чексиз муҳаббатимиз ортиб бораверарди. Ҳеч қачон уйимизда ниҳоллар қуримасди, дарахт шохлари синмасди, сувсизлик ёки касалликдан азият чекмасди. Отажоним қаерда ишласалар, борган жойларини дарахт экиб, ободқ қилардилар, хонадонимизда ҳамма гулу, райҳонларнинг, сабзавот ва полиз экинларининг сара уруғлари бўларди, бутун қишлоқ отамдан уруғ навларини олиб кетарди. Ҳозирлари отамни соғинсам, эккан дарахтлари билан сирлашаман, ғойибона суҳбатлашаман…

Куни кеча Президентимиз Шавкат Мирзиёев мамлакатимизда "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси доирасида кўчат экиш тадбирида иштирок этди ва Миллий дендрология боғини барпо этишга старт берди. Тадбирда маъруза қилган давлатимиз раҳбари халқимиз кўклам кунларида, қулай об-ҳаво шароитларида, азалий қадриятимиз бўлган Наврўз айёми нишонланадиган палларда яхши ният билан кўчат экиб, фарзанд ва набираларига аташларини таъкидлаб ўтди. Беш йилдан буён аньанавий тарзда амалга оширилиб келинаётган "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси туфайли йилига 200 миллион туп кўчат экилади, 2 минг гектардан зиёд майдонда яшил боғлар, 47 та массивда «Янги Ўзбекистон» боғлари барпо этилди. Айнан бу йил воҳамизда 10 минг гектар майдонда "Яшил макон" яратилиши кўзда тутилгани ҳам бежизга эмас. Кучли шамол ва тупроқ емирилишига, шунингдек, атмосфера ифлосланишига қарши кураш бугуннинг энг муҳим мавзуси сифатида қаралмоқда. Ҳавонинг тозалигини сақлаш, кислород билан тўйиниш жуда кўплаб касалликларни олдини олиш билан бирга юртимиз гўзаллигини оширишда, турист-лар ва сайёҳларни жалб қилишда ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Жорий йилдан ҳар бир ҳудудда "Яшил техникумлар" фаолияти йўлга қўйилади, ботаника ва дендрология боғлари ушбу техникум ўқувчилари учун амалиёт базасига айлантирилади. Зеро, яшиллик бор жойда ҳаёт қизғин, нафосат ва назокат бор, тетиклик ва соғлом турмуш тарзи ҳукмрон, орасталик ва озодалик ортидан хонадонлару кўчалар кўркам. Шундай савобли ишлар изидан бориб, ҳаммамиз ҳовли-жойимизга, томорқа ер майдонларимизга гуллар, манзарали ва мевали дарахтлар экайлик, ўз ҳиссамизни қўшиб, юртимизни чинакамига гулистонга айлантирайлик!

**Ойдин ЖЎРАБЕКОВА,**
**Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ўқитувчиси**

## ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ МУАССАСАЛАРИДА ЁШЛАР УЧУН ЯНГИ ДАВР БОШЛАНМОҚДА

Мамлакатимизда инсон қадрини улуғлаш, ёшларни қўллаб-қувватлаш ва уларни жамиятга қайта мослаштиришга қаратилган ислоҳотлар изчил давом этмоқда. Ана шу мақсадда Ўзбекис-тон Республикаси Президентининг 2026 йил 27 мартдаги ПҚ–117-сонли "Жазони ижро этиш муассасаларидаги ёшларни замонавий касбларга ўқитишга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори қабул қилинди. Мазкур қарор жазони ўтаётган ёшларни қайта ижтимоийлаштириш, уларга янги имкониятлар яратиш ҳамда келажакда муносиб ўрин эгаллашларига замин яратишда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу норматив ҳуқуқий ҳужжат доирасида "Иккинчи имкон" ижтимоий реабилитация миллий лойиҳасини амалга ошириш белгилангани эътиборга молик.

Ушбу Қарорга мувофиқ, 2026 йил 1 июндан бошлаб Тошкент, Навоий ва Қашқадарё вилоятларидаги жазони ижро этиш муассасаларида, 2027 йил 1 мартдан эса республика бўйлаб барча ҳудудларда ёшларни замонавий рақамли касбларга ўқитиш тизими жорий этилади. Бу жараён 8–12 ойлик интенсив ўқув дастурлари асосида ташкил этилиб, ёшлар замонавий меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар, айниқса рақамли технологиялар соҳасида билим ва кўникмаларга эга бўладилар. Лойиҳа доирасида ижтимоий хавфи катта бўлмаган, шунингдек унча оғир бўлмаган ва айрим оғир жиноятлар учун жазо ўтаётган ёшлар ўқув курсларига жалб қилиниши кўзда тутилган бўлиб, бу уларни тўғри йўлга қайтариш ва жамиятга фойдали шахс сифатида шакл-лантиришга хизмат қилади.

Шу билан бирга, ёшларнинг билим доирасини янада кенгайтириш мақсадида хорижий тилларни ўрганишга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Хусусан, инглиз, рус, хитой ва бошқа тиллар бўйича ягона интенсив дастурлар жорий қилиниши уларнинг хал-қаро меҳнат бозорида рақобатбардош бўлишини таъминлайди. Ўқув курсларини муваффақиятли якунлаган иштирокчиларга электрон шаклдаги сертификатлар берилиши эса уларнинг келгусида ишга жойлашиши, мустақил фаолият бошлаши ёки таълимни давом эттириши учун муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

Умуман олганда, "Иккинчи имкон" лойиҳаси инсон тақдирига бефарқ бўлмаган жамиятнинг амалий ифодаси сифатида намоён бўлмоқда. У жазони ўтаётган ёшларни жамиятдан четлатиш эмас, балки уларга ишонч билдириш, имконият бериш орқали ҳаётда ўз ўрнини топишларига ёрдам беришга қаратилган.

**Шаҳбоз МУРТАЗАЕВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси "Прокурорлик фаолияти" йўналиши учинчи босқич талабаси**



**"Галабутта" маҳалласи ҳудудидаги 45-умумтаълим мактаби қурилганига эллик йил бўлди. Мактаб катта йўл бўйида яқин жойлашгани учун болаларнинг мактабга келиб-кетишлари қийин кечарди. Чунки, йўлда мактаб болалари юрадиган йўлак автоуловларни секин ҳайдашга ундайдиган "сунъий йўлак" йўқ эди.**

# 50 ЙИЛЛИК МУАММОНИ ТУМАН ҲОКИМИ ҲАЛ ҚИЛДИ

45-мактабда "Турмушобод" ва "Галабутта" маҳалласи фуқаролари фарзандлари ўқийди. Ота-оналар шу йўлда бир неча бор транспорт машиналарини "бахтсиз ҳодисалар" рўй берганлигини кўриб, ўз фарзандларини қимматли вақтларини йўқотиб ўзлари олиб келишарди.

Йиллар давомида мактаб жамоаси ва фуқаролар туман раҳбарларига мурожаат қилардилар, лекин муаммо ҳал бўлмасди. Яқинда ишга келган ҳокимимиз Одилжон Яқубовга навбатдаги мурожаат билдирилганди. У киши "Ўзим бориб ҳал қиламан муаммоларингизни"-деб жавоб берганди.

Ҳоким сўзини уддасидан чиқди. Жорий йилнинг 27 март куни келиб, мактаб ўқитувчилари ҳамда "Турмушобод" ва "Галабутта" маҳалла фаоллари билан учрашиб, муаммолар ўрганилди. Сариосиё туман ЙФДМ раҳбари М.Раҳматуллаевга, ИИБ ЙҲХГ катта инспектори, лейтенант Б.Нусратовга бу муаммоларни ҳал қилиш юзасидан тегишли топшириқлар берилди. Бу мутасадди кишилар эртаси куни иш бошлаб, бир кунда "сунъий йўлак"-ни 45 ва 43-мактаб олдиларида қурдилар.

Туман ҳокими О.Яқубов бошчилигида ҳамда қишлоқ фуқаролари билан биргаликда ҳашар йўли билан 1 километрдан зиёд мактаб болалари учун йўлак (пиёдалар йўли) қуриб ниҳоясига етай деди.

Хулоса қилиб айтганда, туман ҳокими Одилжон Яқубов "Турмушобод" ва "Галабутта" маҳалласидаги 50 йиллик муаммони бир ҳафтада ечиб бердилар. Биз маҳалладошлар туман ҳокимига миннатдорчилик билдириб, кейинги ишларига муваффақиятлар тилаб қоламиз

**Маҳалладошлар номидан**
**Мейлиқул КАРИМОВ**

## IST'EMOLCHINING QAYSI HATTI-HARAKATLARI NOTO'G'RILIGI HAQIDA BILARMIDIZ?

"Iste'molchi" deganda aynan kimni nazarda tutyapsiz — oddiy xaridorni yoki umumiy iste'mol madaniyatini? Chunki "noto'g'ri xatti-harakatlar" kontekstga qarab o'zgaradi. Shunga qaramay, eng ko'p uchraydigan muammoli holatlarni aniq qilib beraman:

**1. Huquqlarini bilmaslik**

Ko'pchilik iste'molchilar o'z huquqlarini bilmaydi va sotuvchi noto'g'ri ish qilsa ham indamaydi. Bu esa firibgarlik yoki sifatsiz xizmatlarga yo'l ochadi.

**2. Tekshirmasdan xarid qilish**

-mahsulotni;
-yaroqlilik muddati;
-sifati;
-hujjatlari;
-tekshirilmasdan olish — keyin o'zi zarar ko'radi.

**3. Chek yoki hujjat olmaslik**

Ko'p odamlar chekni olmaydi yoki saqlamaydi. Natijada:
-qaytarish;
-almashtirish imkoni yo'qoladi.

**4. Arzonlikka haddan tashqari berilish**

"Arzon bo'lsa bas" degan qarash ko'pincha sifatsiz yoki soxta mahsulotga olib keladi.

**5. Shartnoma yoki shartlarni o'qimaslik**

Ayniqsa kredit, xizmat yoki onlayn xaridlarda odamlar:
-mayda yozuvlarni o'qimaydi;
-keyin esa noqulay shartlarga tushib qoladi.

**6. Mas'uliyatsiz foydalanish**

Mahsulotni noto'g'ri ishlatib, keyin sotuvchini ayblash ham noto'g'ri xatti-harakat hisoblanadi.

**7. Shikoyat qilmaslik yoki noto'g'ri shaklda qilish**

Ba'zilar umuman shikoyat qilmaydi, boshqalar esa:
-dalilsiz;
-hissiyot bilan;
-murojaat qiladi — bu esa natija bermaydi.

**M.ZARIPOVA,**
**tuman Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati**

# ZULFIYAXONIM-VAFO VA SADOQAT KUYCHISI

Ayollar she'riyatiga nazar tashlasak, shoiralarning o'ziga xos qalb dunyosi borligini sezamiz. Ular qalbining zarblari g'oyat sezgir, bezovta, tahlikali, bardoshli. Shoiralar nima haqida fikr yuritmasinlar, ularda ayol qalbi ko'rinib turadi. Ayollar tasvirida ular qalbining mehri va qahri shunday yonib turadi. Zulfiya she'rlaridagi ohori to'kilmagan tashbehlar, obrazlarning qudratliligi ana shundan. Zulfiya Isroilovaning hassos va noyob qobiliyatli shoira ekanligi "O'glim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira", "So'roqlaydi shoirni she'rim", Tong va shom aro" kabi mazmunli turkum-kitoblarida namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Uning ijodiga "Zulfiya she'riyati tugal optimistik, insonga va dunyoga, uning kelajagiga nekbin ishonch bilan qaraydigan she'riyat" deya baho berilgan.

Adabiyot va san'atda umrboqiy hodisalar qiyinchilik bilan dunyoga keladi. Boqiylik sermashaqqat mehnat va tug'ma iste'dodni talab qiladi. Umrboqiylikni ana shunday tarzda anglagan Zulfiya hech qachon so'zga xiyonat qilmadi, e'tiqodida sobit turdi. Zulfiya shodlikni, baxtiyorlikni to'liq his etdi. Baxtiyor bo'ldi, muhabbatga oshno bo'ldi. Taqdir unga go'zal ishq in'om etdi. Uning she'rlarida shodlik va baxt yolqinlandi. Ayol sifatida shodlik va baxtning ko'lamini chuqur his etdi. Olloh unga munosib juft ato etdi. "Hayot menga yanada talabchan va qattiqroq muharrirni baxsh etdi. Hayotimning o'n yili, faqatgina o'n yili Hamid Olimjon bilan hamnafas va hamqadam o'tgani men uchun ulkan baxt bo'ldi. Ulkan shoir, o'z ona tili va adabiyotining bilimdoni, kam uchraydigan qobiliyat va intizom sohibi, do'stlariga mehribon, dushmanalariga ayovsiz Hamid Olimjon faqat mening turmush yo'ldoshim va farzandlarimning otasi bo'libgina qolmasdan, ayni chog'da, qalbim va ruhimga uyg'un hamrohim va sezgir maslahatchim edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she'r yozishni o'rgandim, uning ijod maktabida ta'lim oldim" degan edi shoira. Ha, shunday qilib, Hamid Olimjon Zulfiya uchun ham umr yo'ldoshi, ham ustozi edi.

Zulfiya tabiatni butun vujudiga jamuljam qilib she'r yozadi. Uning she'rlarida yurak po'rtanalari, qalb chaqinlari kezib yuradi, yil fasllari falsafasi aks etadi. Zulfiya "Hijron kunlarida", "Uni Farhod der edilar" asarlari bosilib chiqqunga qadar shoira bo'lib el nazariga tushgan edi. Uning she'rlarida yengil, og'riqsiz, dardsiz misralar deyarli uchramaydi. Zulfiyaning she'riyati insonga va dunyoga, unnig porloq kelajagiga umid bilan qaraydigan she'riyat. Uning she'riyati o'ziga xos she'riyat.

Zulfiyaning iste'dodi she'r yozgani sayin ochila bordi. Tuyg'ular tug'yonidan san'at asari yaratishga erishdi. Umrning o'tkinchiligi va abadiyat haqidagi fikrlar uning "Tong va shom aro" turkum-kitobiga kirgan she'rlarida o'z mujassamini topdi. Bu she'rlarni dunyo haqidagi o'y-mushohadalar va baxtli onlarning natijalari deya qarash mumkin. Bir-biriga o'xshamaydigan, ammo bir-biri bilan uzviy bog'langan she'rlar borasida ko'p fikrlar bildirildi. Inson umri tong va shomlardan iborat, Kitobga nom tanlashda ham mahoratini namoyon qilgan shoira tongni yangi, noyob hislar bilan qarshi oladi. O'zini yoshdek his qiladi, ko'ngli tozaradi. Lirik qahramon tunni sevmasligini, tunda noxushlik sezishini, azob chekishini, tun unga yolg'izlikni his ettirishini anglaydi. Ayol kishi go'zallik timsoli, shuningdek, gulni sevadi, unga oshiq. Shoira ham boshqa ijodkorlar kabi gulni sevadi:

***Bu g'ashlikmi, yashashga o'chlik,***
***Vaqt tuyg'usi bir onda unut.***
***Yomg'irli kuz bo'ldi gul islik,***
***Bulbul bo'lib sayradi sukut...***

Sukut – jimjitlik. Ammo shoira nazarida, sukut so'zlaydi. So'zlaganda ham bulbul tili bilan sayraydi. Fasllararo muvozanat buziladi, tabiatning azaliy qonunlari chegarasini yoradi. Buni anglash va anglatish nozik hissiyotli ayol shoiragagina xos xislatdir.

Zulfiyaning lirik qahramoni ulug'vor orzu-niyatlarini o'ziga yo'ldosh deb biladi, ularga intiladi. Uning "Tunni sevmay qo'ydim" nomli she'rida mubolaga'li tasvirlarni kuzatamiz:

***Dala, qirni quchsam, qulochim tashlab,***
***Ko'ksim yayrab ketar ko'lning sathiday.***
***Undan qo'shiq uchar oq kabutarday,***
***Tonggi yer nafasin to'ymay ichaman.***

Lirik qahramonning bag'ri shunchalar kengki, u dala, qirlarni quloch tashlab quchishga qodir. Shoira tabiatni, butun borliqni yuragiga jamlagan holda she'r yozadi. Uning she'rlari orasida vujud chaqindek chaqnaydi, shamollar gulzorlarni uyg'otadilar, bahorlar kuz bilan uchrashadilar, hayot butun go'zalligi, nafosati bilan dillarni shuurga to'ldiradi.

Qizg'in satrlar bitayotgan shoiraning she'rlarida birdan gumburlab iztirobli o'ylar qoimi kirib keladi. Bahor abadiy bo'lishini istagan oshufta qalb beixtiyor kuz, qish bilan oshno bo'lishga majbur bo'ladi. Ayolning qudratini dengiz mavjlariga qiyoslagan shoira she'rlarida lirik qahramon har doim g'aflat va loqaydlikdan yuqori tura oladi:

***Men esam ko'zimni ochmayin,***
***Madorsiz qo'l bilan yoqaman chirog'im.***
***Itqitgan qalamni axtarib topmayin,***
***Shivirlab yotaman ilhomning tavobin...***

She'r misralarini o'qir ekansiz, o'z o'rnida qo'llangan so'zlar xuddi musavvir chizgan suratdek tasavvur uyg'otadi. She'rning ruhi va ohangi, mavzu-mundarijasi, lirik qahramonning dil istaklari umuminsoniy fikrlardir. Uning she'riyatida yashash, kurashish, kelajakka umidvorlik, baxt-iqbol, iztirob, ayriliq, hijron, ayol zotining buyuk chidami, sabru toqati, farzandining baxti uchun fidokorligi, orzu-armoni mujassamlashgan. Shuning uchun shoira "Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz Tinchlik deydi butun xalq bilan" deb yozadi.

**Nodira NABIYEVA,**
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi**



## ONAM

**Atirgul tikani beribdi ozor,**
**Tilibdi shu xasta**
**qalbingiz onam.**
**Insonni insonga qilmasin zor,**
**Bo'layin doimo**
**baxtingiz onam.**
**Umrimning ma'nosi,**
**borlig'im o'ziz,**
**Jaranglar qulog'im**
**ostida so'ziz.**
**Hayotning sinovi**
**ezganda yurak,**
**To'kadi yoshlarin shu**
**munchoq ko'ziz.**
**Dardlar to'la ummon**
**bo'lgansiz,**
**Yorilmaydi mustahkam**
**to'g'on,**
**Bu azoblar qishda qolgan iz,**
**Bahor ila yaralgan qo'rg'on.**
**O'tgan har bir shirin on,**
**Xayollar og'ushi**
**ko'zizda onam.**
**Fido bo'lsin mayli tanda jon,**
**Hayotim mazmuni**
**o'zizda onam.**

**Shaxzoda Ergasheva**

# Ўзбекистон қонунчилигида кучга кирган айрим ўзгаришлар

**2026 йил 1 мартдан бошлаб:**

-"маҳалла еттилиги" хулосасига асосан Ижтимоий реестрдаги I гуруҳ ногиронлиги бўлган ва меҳнатга лаёқатли аъзоси бўлмаган оилалар хонадонларининг девор ва томларини изоляция қилиш, энергия тежамкор дераза ва эшик ҳамда қуёш панеллари ёки гелиоколлектор ўрнатиш ишлари амалга оширилиши таъминланади;

-Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси томонидан бошқарувчиларга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштиришда тегишли бош муҳандисни хабардор қилиш тартиби жорий этилади;

-кўп квартирали уйларнинг техник кўрсаткичлари, ҳолати, туташ ер участкалари, электр ва иссиқлик энергияси, ичимлик суви истеъмоли, инфратузилмасини яхшилаш учун ажратилган ва сарфланган маблағларнинг ҳисоб-китобини юритиш имконини берувчи "Менинг уйим" АБТда "Тураржой" ахборот бўлими ишга туширилади;

-республика ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбарларининг тадбиркорлар билан мулоқотини ташкил қилишнинг янги тартиби жорий этилади;

-ҳуқуқий маданиятни юксалтириш бўйича тадбирларни мониторинг қилиш ва баҳолаш тизимидан воз кечган ҳолда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар матнларини ижрочиларга етказиш, уларнинг моҳияти ва аҳамиятини ижрочилар ва кенг аҳоли қатламига тушунтириш ишларини "Ijro.gov.uz" идоралараро ягона электрон ижро интизоми тизими орқали назорат қилиш тартиби йўлга қўйилади;

-Ўзбекистон Республикаси фуқаролари яшаш жойи манзилини ҳамда уларга тегишли кўчмас мулкда яшаш жойи бўйича рўйхатдан ўтган шахс (шахслар) тўғрисидаги маълумотни таҳрирлаш учун ЯИДХП орқали электрон мурожаат қилиш имконияти яратилади;

-хулқ-атвори бузилишлари бўлмаган руҳий касаллик бўйича диспансер назоратида турувчи деменция, Паркинсон ёки Альцгеймер касаллиги ташхиси қўйилган махсус парваришга муҳтож шахслар учун "Фаол ҳаётга қадам" дастури доирасидаги кундузги қатнов асосида қараб туриш хизматини кўрсатиш йўлга қўйилади;

-CEFR мезонларига мувофиқ чет эл фуқаролари учун ўзбек тилини билишнинг A1, A2 ва B1 даражалари бўйича малака сертификатини бериш учун имтиҳонлар жорий этилади;

-"Техник тартибга солиш" ва "Шаффоф қурилиш" ахборот тизимларининг ўзаро интеграцияси доирасида хавфсизлиги номувофиқ деб топилган қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчилари ва етказиб берувчиларининг электрон реестри юритилади;

-республика тиббиёт марказлари мутахассислари ҳамда хорижий экспертлардан иборат таркибда ўткир юрак-қон томир ва цереброваскуляр касалликларни даволашда тиббий хизмат кўрсатишни мувофиқлаштирувчи кенгаш фаолияти йўлга қўйилади;

-давлат харидлари бўйича махсус ахборот порталида давлат хариди предметининг ўртача бозор нархини сунъий интеллект технологиялари асосида ҳисоблаб берувчи электрон модул ишга туширилади;

-абитуриентларни "Юриспруденция" таълим йўналишларига ўқишга қабул қилишда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбийлари, ички ишлар органлари ходимлари, фан олимпиадалари ғолиблари, ижтимоий ҳимояга муҳтож шахсларга татбиқ этиладиган имтиёзлардан ташқари "Юриспруденция" таълим йўналишига алоқадор бўлмаган олий таълим ташкилотларига киришдаги қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар татбиқ этилиши тўхтатилади;

-айрим архив хизматларини кўрсатиш муддатлари қисқартирилади;

-вафот этган шахснинг ўлими қайд этилгандан сўнг реал вақт режимида унинг эри (хотини), ота-онаси, фарзандларининг Ягона интерактив давлат хизматлари порталидаги шахсий кабинетига ўлим қайд этилгани ҳақида QR-код тасвири туширилган маълумотнома бепул юборилади. Ушбу маълумотнома гербли гувоҳномага тенглаштирилади;

-табиатга зарар етказиш бўйича компенсация тўловларидан озод қилиш тарзида имтиёз бериш билан боғлиқ барча қонунчилик ҳужжатлари ва ҳуқуқий кучга эга кўрсатмалар ўз кучини йўқотган деб ҳисобланади ҳамда ушбу масалада имтиёз бериш фақат қонун орқали амалга оширилади;

-лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари соҳасидаги ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун юридик шахсларга жарима қўлланганда, уларнинг мансабдор шахсларини маъмурий жавобгарликка тортиш тартиби бекор қилинади;

-рақамли маркировка тизими жорий қилинган товарларнинг яроқлилик муддати ўтган бўлса, уларнинг савдоси ушбу тизим орқали автоматик равишда чекланади. Бунда рақамли маркировкаланган муддати ўтган товарларга назорат-касса техникаларида харид чеки чиқарилмайди;

-ўз фаолиятини нотижорат ташкилот шаклида йўлга қўймаган нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари томонидан суд-экспертиза тадқиқотлари ўтказилиши тақиқланади;

-фуқаролик, маъмурий, иқтисодий ва маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар бўйича дастлабки суд маълумотларини фуқароларга Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали олиш имконияти яратилади.



# MEHNAT XAVFSIZLIGI O`QUV-TAKTIK MASHG`ULOTLARI

**Joriy yilning 31 mart sanasida 1-Alohida harbiylashtirilgan kon qutqaruv vzvodi va "Sharg`unko'mir" AJ o'rtasida, Harbiylashtirilgan kon–qutqaruv Shtabining 2026 yil 21 yanvardagi 10-sonli buyrug'iga asosan kelishilgan rejaga muvofiq maxsus taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.**

**Mashg'ulotda 1-AHKQ Vzvodi shaxsiy tarkibi, "Sharg`unko'mir" AJ, "Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar" bo'limi boshlig'i – Fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi X.A.Toshqulov, Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi inspektori Sh.Q.Xoliqov, "Sharg`unko'mir" AJ Bosh muhandisi M.R.Pardayev va texnika xavfsizligi xodimlari qatnashdi.**

**O'quv taktik-texnik mashg'ulotida "Sharg`unko'mir" AJ konlarida yong'in sodir bo'lgan ob'yektida shuningdek, ro'y berishi mumkin bo'lgan boshqa jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish hamda toza havoga chiqarib, tibbiyot xodimlariga topshirish bo'yicha amaliy harakatlar namoyish etildi.**



**Shuningdek, o'quv mashg'ulotining yakunida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklar, texnogen vaziyatlar va avariyalarni oldini olish to'g'risida amalga oshirilagan chora-tadbirlar bo'icha ko'rsatmalar berildi.**

*Бу оламни мунаввар айлаган маънавий хазина жавоҳири, қалб гавҳари бўлган муқаддас Китобнинг анвойи ҳиди ўзгача...*

# БОЛАЛИК КОШОНАСИ

Ўтган асрнинг 70-йилларида қурилган биноларни бугунгилари билан солиштириб бўлмайди, албатта. Шундай бўлса-да, ўша даврдаги туманимиз кутубхонаси ҳали-ҳамон мен учун дунёдаги энг муҳташам кошонадай хотирамда муҳрланиб қолган. Очиғи, кунда-кунора бу китоб саройига борар эканман, алоҳида жиддий ҳозирлик кўрар эдим. Казо-казолар ўша пайтлари Эрмитаж музейи ёки театрга боришга қандай ясан-тусанда бўлса, мен ҳам шундай қилардим.

Болалик тасаввуримда жаҳондаги энг чиройли иншоотлар фақат кутубхоналар бўлса керак, деб ўйлардим. Шинамлиги, тоза-озодалиги, кенг ва ёруғлиги назаримда муаззам саройлардан қолишмас эди.

...Минг бир ҳаяжон билан кутубхона остонасини ҳатлайман. Дунёдаги жамики китобларнинг "меҳрибон" дўсти, ширин сухан, истараси иссиқ кутубхона ходими табассум билан илиқ кутиб олади.

Ниҳоятда одоб ва тавозе билан китоб жавонларининг ёнига бораман. Мана дунё мўъжизаси мендек содда қишлоқ боласи олдида виқор билан ял-ял товланиб турибди. Лев Толстой, Пушкин, Лермонтов, Навоий, Бобур, Александр Дюма, Фенимор Купер, Виктор Гюго, Мопассан, Абдулла Қодирий, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Саид Аҳмад, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов...

Жаҳон адабиёти афсунгарларига бир-бир секин кўз ташлайман. Мен бу улуғлар даврасини қизиқувчанлик билан кузатаман. Қалбимда бир ғурур пайдо бўлади. Чиройли қилиб тахланган бежирим муқовали китоблар ноёб хазинанинг асл инжуларига ўхшайди. Китобларнинг худди жони бордек, ҳозир тилга кирадигандек. Мен оддий бир 6-синф ўқувчиси, мана шундай улуғвор ганжинага бемалол қўл узатишим, баҳраманд бўлишим мумкин. Менда беихтиёр дахлдорлик ҳисси пайдо бўлади. Оламни лол қилган алломалар ёнида турибман. Улар билан суҳбат қуришим, савол беришим, маслаҳат олишим мумкин. Мана шу тасаввур кутубхонанинг улуғворлигини, чўнглигини янада оширгандай бўлади. Бу ерда ишлаётган ходимлар гўзал ва сирли оламнинг фаришталари каби. Уларга ҳавас қиламан, орзуларга чўмаман.

Китобларни қўлга оларканман, беҳад қувонаман. Бағримга маҳкам босаман. Маърифат ёмбиси қўлимда товланади. Дунёда мендан бахтли одам йўқ. Уйга келиб мукка тушиб мутолаага киришаман. Муҳташам саройга, улуғлар даврасига яна тезроқ қайтиб бориш, гўзалликдан баҳра олиш учун мижжа қоқмайман.

Турли саналар сабаб кутубхонада ўтадиган тадбирларда фаол китобхон сифатида мен ҳам қатнашар эдим. Асарлардан парчаларни ёддан ўқиб бериш, турли саҳна кўринишларини ижро этиш, айниқса олам-олам завқ бахш этар эди. Ўзимизни улғайгандек, ажойиб ишларга қодир инсонлардек ҳис қилар эдик...

## КИТОБГА ҚЎЙИЛГАН ҲАЙКАЛ

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг "Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида"ги қарори эълон қилинганига олти йил бўлди. Шу баҳона болалик ва ўсмирлик чоғларимда мана шундай ёрқин хотиралар қолдирган кутубхонани эсга олдим.

Дарҳақиқат, бугун юртбошимизнинг шахсий ташаббус ва даъватлари мамлакат бўйлаб китобхонлик бўйича улкан ва эзгу оммавий ҳаракатни бошлаб берди. Кутубхона, китоб, китобхонлик деган муқаддас тушунчалар давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Биргина эътироф: бу қарор билан Ўзбекистонда китобга ҳайкал қўйилди.

**Хайринисо АҲМЕДОВА,**
**туман Ахборот-кутубхона маркази етакчи мутахассиси**



# ҒАЛЛАНИ "ЗАНГ"дан асранг

**Сариқ занг касаллиги.**

Касаллик дон тўлиш даврида тушса, 5-10 фоиздан 30-35 фоизгача ҳосилни нобуд қилади. Буғдой бошоқ чиқариш арафасида сариқ занг билан 50-60% зарарланса, дон ҳосили 45-50% йўқотилади.

Сариқ занг касаллиги споралари ҳаво ҳарорати 0°С бўлиши билан ўсимлик танасида ривожлана бошлайди, унинг авж олиб кўпайиши учун энг қулай ҳарорат +12..+23 даража ҳисобланади.

Касаллик белгилари аввал бошоқли бегона ўтлар ва бошоқли экинлар баргларида узун, қатор-қатор жойлашган, аниқ кўринишдаги сариқ ёстиқчалар ҳосил қилиб пайдо бўлади. Аста-секин занг касаллиги бутун барг юзасини қоплайди. Баргдаги модда алмашинуви бузилиб, озуқа ҳосил бўлиши кескин камайиб, бошоқдаги дони тўлмай қолишига олиб келади.

**Қўнғир занг касаллиги.**

Буғдой гуллаш даврида 40-80% қўнғир занг билан касалланса, 25-30%, бошоқ чиқариш даврида тушса 40-50% ҳосил йўқотилади.

Ҳаво ҳарорати +2 даражадан бошлаб буғдой ўсимлиги танасида қўнғир занг касаллиги ривожлана бошлайди. Агар ҳаво ҳарорати 15-23 даража, нисбий намлиги 65-70% бўлса, касаллик ривожланиши учун энг қулай ҳисобланади.

Касаллик белгилари ёввойи сули, буғдойиқ, райграс каби бегона ўтлар ва ғалла экинлари баргларида думалоқ, сарғиш-қўнғир, чангли ёстиқчалар ҳосил қилиб пайдо бўлади.

Шу ёстиқчалар ичида ривожланган споралар бошқа барглар ва ўсимликларга шамол, техника ва бошқалар ёрдамида ўтади ва об-ҳаво қулай бўлса, бошқа барглар ва ўсимликларга, далаларга кенг тарқалади.

**Кураш чораси:**

Занг турларига қарши кимёвий курашдан кўра биологик кураш самаралироқ ҳисобланади. Бунда таркиби ушбу касаллик патогенларининг табиий кушандаси ҳисобланган Bacillus subtilis тирик бактерияларидан иборат бўлган «Спорагин» биофунгициди касалликнинг илк ривожланиш давридан бошлаб, ҳосил давригача 2 марта, 25-30 кун оралиқда қўлланилади. Бу ишловлардан сўнг инфекцион замбуруғлар фаолияти тўла тўхташи таъминланади.

**З.Сайриддинов, С.Камолов, М.Одилов, Ш.Ҳайитқулов, А.Эшбоев,**
**Сурхондарё вилоят Ўсимликлар карантини ва ҳимояси бошқармаси Сариосиё туман бўлими фитосанитар назорат давлат инспекторлари**

# ЗУҲРО ЮЛДУЗ ҚИССАСИ

Қадим замонда Бобулистон томонлардами, бир йигит нобино отасини етаклаб кетаётганди, падарини қотилини излаб юрган кимса шу кўрдан гумонга бориб, уни тош билан уриб ўлдирибди. Шунда буни кўриб қолган фаришталар Худога иддао қилишибди:- бизлар Одамни яратмагилки, улар ер юзида кўп нобакорликлар қилишади дегандик, мана кўрдингми, улар қандай жаҳолатни содир этишди,-дебдилар.

Парвардигор фаришталарнинг иддаосига жавобан: "Одамларда орзую ҳавас, ишқ, фарзанд, емак-ичмак, киймак, ҳирсу шаҳват, нафс ва яна қанчаким балолар борким, баъзан гумроҳлик қиладилар, билмадим, сизларда булардан бир-иккисини берсам, бундан-да баттар ишларни қилиб юрармидингиз» дебди. Фаришталар асло бундоқ қилмасмиз, де-йишибди мағрурона.

Парвардигор фаришталарни синамоқ учун ораларингдан учта жуда доно, донишмандлисини келтирингиз, дея буюрибди. Уч нафар фаришта ҳозир қилинибди. Парвардигор уларни одам суввратига солиб ерга туширибди. Улардан бири қисқа муддатда ер юзидаги ишлар, ташвишларни кўриб, чидаш оғирлигини англаб етибди ва тавбаю тазаррулар қилиб, фалакка қайтибди. Қолган ерда қолган иккининг бири қози, иккинчиси эса муфтий бўлибди.

Кунларнинг бирида аҳил яшаб келаётган Зуҳро исмли аёл эри билан тортишиб қолибди ва фаришта амалдорлар ҳузурига яраштирмоқни сўраб борибди. Парвардигор ул фаришталар кўнглига шаҳватни жо қилган эди, Зуҳрони кўриб ошиқ бўлиб қолдилар. Эрини чақиртирдилар, хотининг яхшимас, талоқини бер дедилар. У яхши сифатлари кўплигини айтиб, талоқ айтмади. Шунда уларга алоҳида уйларда яшаб туришни маслаҳат бердилар ва кунларнинг бирида Зуҳрони уйига бориб, зино таклиф этдилар.

Зуҳро лол қотди ва қутулмоқ иложини ўйлади. Айтдики, зинога киришдан олдин исми аъзамни ўргатсинлар. қозию муфтий фаришталар исми аъзамни дилига солдилар. Зуҳро яна баҳона қилдики, зинодан олдин ғусл қилмоқлиги зарурдир. Ижозат олди-да, пана жойга ўтиб, Худога илтижо қила бошлади, Парвардигорим, булар мени зинога мажбур қилаётирлар, биламан, бу сенинг наздингда жуда оғир гуноҳдир, шунинг учун асло истамам, дея муножот қилди ва токи гуноҳи азимдан халос бўлай, минг розиман, мени покизалигимга ер юзидан кўтариб олгундек сўради.

Парвардигор фаришталарга буюрдики, пок Зуҳрони осмонга кўтариб олсинлар. Ва у самода ёрқин сайёра Зуҳрога (Венера) айланди. Демакки, фалакда порлоқ шўлали, ҳулкар тонг юлдузи Венера сайёрасининг яратилиши поку покиза аёл Зуҳронинг номи билан боғлиқ экан. Заҳро исми ҳам Зуҳрага муштаракдирки, пок, ёрқин, ойдин, порлоқ нурли демак маъноларни англатади...

Қиссадан ҳисса: Парвардигор ўша икки фариштага ғазаби ила Ҳорут ва Морут исм бериб, қиёматгача ерда ғорда яшашга маҳкум қилган.

**Рабғузий ривояти асосида Н.ХОЛИҚОВ тайёрлади.**

# ТЎРТ ТАБИБ

Табибларнинг улуғи Ибн Сино кунлардан бирида қаттиқ оғриб, кўрпа-тўшак қилиб ётиб олибди. Ибн Синонинг шогирдлари, энг яқин дўст-биродарлари йиғилишибди. Улар яхши сўз айтиб, улуғ табибнинг кўнглини кўтаришга, кайфиятини яхшилашга ҳаракат қилишса, шогирдлари уни дори-дармонлар билан даволашга киришибдилар.

Ўлими яқинлигини сезган Ибн Сино шогирдларига шундай дебди:—Эй, шогирдларим, менинг куним битган кўринади. Шу боисдан мени даволайман, деб беҳудага ҳаракат қилманглар. Вафот этсам, йиғисиғи, оҳ-воҳ қилиб ўтирманглар. Фақат ҳақимга дуо қилиб, онда-сонда қабримни зиёрат қилсанглар бас. Ва яна, устоз оламдан ўтди, энди табобат оқсайди, деб ҳам қайғурманглар. Ўрнимга бешта зўр табибни қолдириб кетмоқдаман. Шуларнинг маслаҳатларига доимо амал қилинг-лар, бошқаларни ҳам шунга даъват этинглар, — дебди.

Шогирдлардан бири: — Устоз, сиз айтган табиблар кимлар экан?— деб сўрабди.

Шунда Ибн Сино:

— Мен қолдириб кетаётган зўр табибларимнинг бири — тозалик, иккинчиси — парҳез, учинчиси — бадан тарбиядир. Ва қолган иккиси мижоз ва кайфият ҳисобланади. Доимо покиза, озода бўлишлик, дуч келган овқатни ея бермаслик, апил-тапил овқатланмаслик, парҳез ва меъёрни билишлик, ичкиликка ружу қўймаслик, бадан аъзоларини ҳаракатсиз қолдирмаслик, мижозни унутмаслик ва ниҳоят, кайфиятни яхши тутишга ҳаракат қилиш лозим. Айтганларимга амал қилинса, касалланиш у ёқда турсин, ҳаттоки бевақт ўлим ҳам орқага чекиниши мумкин, деган экан.

*Узун туманидаги «SOHIBQIRON JAHONGIR» (СТИР: 201661880) фермер хўжалигининг думалоқ муҳри ва тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**

*Узун туманидаги «SURXON QURILISH SANOAT GOLD» (СТИР: 310885516) масъулияти чекланган жамиятининг думалоқ муҳри ва тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**

*«SATTOROV BOZOR» (СТИР: 306962452) оилавий корхонасининг думалоқ муҳри ва тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**

*Фуқаро Тошмуродов Диловар Рамазон ўғли номига 2020 йил 06 февралда берилган DL0002194127 рақамли ҳайдовчилик гувоҳномаси йўқолганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**

## ЎТГАНЛАР ОХИРАТИ ОБОД БЎЛСИН!

Сариосиё туман ҳокимлиги туман ҳокими собиқ ўринбосари Нурмуҳаммат Каримовга умр йўлдоши

**Маҳбуба Юлдошева**

нинг вафот этганлиги сабабли таъзия изҳор этади.

Сариосиё туман Маданият бўлими жамоаси тизимда узоқ йиллар самарали меҳнат қилган меҳнат фахрийси, хушовоз хонанда

**Беков Саъдилло**

нинг вафоти муносабати билан унинг оила аъзоларига чуқур ҳамдардлик изҳор этади.

Туман Қишлоқ хўжалиги бўлими жамоаси Абдурахимов Абдулазизга волидаи муҳтарамаси

**Асадова Саида момо**

нинг вафот этганлиги сабабли унинг оила аъзоларига чуқур таъзия билдиради.

MUASSISLAR: Xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashi va tuman hokimligi

Gazeta O`zbekiston Respublikasi Matbuot va Axborot Agentligi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2012 yil 31 iyulda № 11-053 raqam bilan ro`yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR: AZIZOV ABBOS RAJABALIYEVICH
Tel: (+998 97) 350 78 89
(+998 95) 022 78 89
Tahririyat manzili: S.Sheroziy mahallasi, Matbuotchilar ko`chasi 7-uy.
E-Mail: Sariosiyo@umail.uz

Gazeta «SariOsiyo» tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
Tojik sahifasi mas`uli: Solehjon RAJABOV
Gazeta sahifalovchisi va dizayner Nodirbek DAVLATOV

Gazeta «Surxon tongi» va «Заря Сурхана» gazetalari tahririyati bosmaxonasida A-2 hajmda 2 bosma taboqda 2800 nusxada chop etildi. Buyurtma № ______
Topshirish vaqti 16⁰⁰, topshirildi 16⁰⁰da.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, Shukrona ko`chasi, 21-A uy.

Tahririyatga kelgan qo`lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.